



PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR ASOSIDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik innovatsiyalar asosida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda innovatsion yondashuvlarning yoshlar ma'naviy kamolotiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqotda yoshlarning mustaqil fikrlashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishida innovatsion ta'limning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada pedagogik innovatsiyalar orqali ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *an'anaviy yondashuv, an'anaviy usullar, interfaol metodlar, zamonaviy ta'lim, ta'lim oluvchilar, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, rag'batlantirish, faollik, bilimlarni samarali o'rganish.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы теоретические и практические механизмы развития духовного мировоззрения молодежи на основе педагогических инноваций. Освещены вопросы влияния современных педагогических технологий, интерактивных методов и инновационных подходов на духовное становление молодого поколения в образовательном процессе. В исследовании раскрывается значение инновационного образования в формировании самостоятельного мышления молодежи, а также воспитания уважения к национальным и общечеловеческим ценностям. В статье представлены научные выводы и практические рекомендации по повышению эффективности духовно-нравственного воспитания посредством педагогических инноваций.*

Ключевые слова: *Традиционный подход, традиционные методы, интерактивные методы, современное образование, обучающиеся, инициативность, ответственность, стимулирование, активность, эффективное усвоение знаний.*

Annotation : *This article analyzes the theoretical and practical mechanisms for developing the spiritual worldview of young people based on pedagogical innovations. The study highlights the influence of modern pedagogical technologies, interactive methods, and innovative approaches on the spiritual and moral development of youth within the educational process. Particular attention is paid to the role of innovative education in fostering independent thinking, as well as respect for national and universal values among young people. The article also*



provides scientific conclusions and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of spiritual and moral education through pedagogical innovations.

Keywords: *Traditional approach, traditional methods, interactive methods, modern education, learners, initiative, responsibility, motivation, activity, effective acquisition of knowledge.*

An'anaviy ta'lim mamlakatimizning o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir. Lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan –texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamityaning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashh, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etishh lozim. An'anaviy ta'lim bir qator salbiy tomonlari mavjud. Ba'zan yosh o'qituvchilar va amaliyotga chiqqan talabalar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo'l quyilganligining guvohi bo'lamiz. Yosh o'qituvchilar va talabalar faoliyatida yo'l qo'yilayotgan xatolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Maqsadda aniqlikning yo'qligi. Ya'ni, talabalar aslida nima qilishhlari va nimani o'rganishhlari aniq belgilanmaydi.

2. Ta'lim maqsadining talabalar darsning natijasi bilan to'g'ri kelmagan hollar bo'ladi.

3. O'rganishh uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

4. O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar talabaning darsda bilimlarni samarali o'rganishhini ta'minlamaydi.

5. Dars rejasida ko'rsatilgan talablar dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi.

Umuman tuzilgan rejalar qayta ko'rib chiqilishhi va xatolarni bartaraf etishh ustida ishlanishi lozim ya'ni dars rejasi sizni va sizning talablargizni ma'lum natijalarga erishishingizga asos bo'lishi lozim. Darsni shunday rejalashtirish lozimki, unda nima qilinishi mo'ljallanayotganligini aniq o'z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o'rin qolmasin. An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi. An'anaviy o'qitish asosini, Y.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o'zlashtiruvchanlik (ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)



- ongʻlilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bogʻliqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

Anʻanaviy oʻqitish quyidagi xususiyatlarga ega: zoʻravonlik pedagogikasi, oʻqitishning tushuntiruv-koʻrgazmali usuli, ommaviy oʻqitish. Anʻanaviy oʻqitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon boʻladi: oʻquvchi bu hali toʻla shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs. Hozirgi pedagogik amaliyotida taʼlim metodlarning 200 dan ortiq turlari mavjudligi eʼtirof etiladi. Ushbu taʼlim metodlarini taʼlim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud boʻlib ammo, bugungi zamonaviy taʼlim sharoitida talabalarni taʼlim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qoʻllashni talab etadi. Shuni eʼtiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat taʼlim maqsadiga, balki, oʻquv material mazmuniga ham bogʻliq boʻladi.

Taʼlim oluvchilarning oʻquv-bilish va oʻquv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda koʻmak beruvchi taʼlim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol taʼlim metodlarni maqsadli yoʻnaltirilgan tanlash belgilangan oʻquv maqsadga erishishni kafolatlaydi va har qanday taʼlimning maqsadi – taʼlim oluvchilarda bilim, koʻnikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Oʻquv faoliyatida taʼlim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli taʼlim metodlarni birgalikda qoʻllash zarur. Shuning uchun, taʼlim metodini tanlashda eng asosiy omil boʻlib aniq oʻquv mashgʻulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda taʼlim jarayonida oʻqitishning zamonaviy metodlari keng qoʻllanilmoqda, oʻqitishning zamonaviy metodlarini qoʻllash oʻqitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Anʻanaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni taʼlim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish taʼlim oluvchilarning oʻzlashtirish darajasi oʻsishiga olib keladi. Interfaol metodlar deganda – taʼlim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, taʼlim jarayonining markazida taʼlim oluvchi boʻlgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qoʻllanilganda taʼlim beruvchi taʼlim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Taʼlim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashgʻulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma koʻrinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham koʻproq jihatdan interfaol taʼlim metodlariga tegishli boʻlib, • “Baliq skeleti”, “BBB”, • “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, Interfaol grafik organayzerlar: • “T-jadval”, • “Insert”, • “Klaster”, • “Nima uchun?”, • “Qanday?” va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlar: • “Ijodiy ish”, • “Blistsoʻrov”, • “Modella shtirish”, • “Zigzag”, • “Muammoli taʼlim” • “Keysstadi”, • “Bumera ng”, • “Galereya”. Interfaol taʼlim metodlarini koʻpincha turli shakllardagi oʻquv mashgʻulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qoʻllanmoqda. Bu metodlarni qoʻllash mashgʻulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, taʼlim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol



metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonlari ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shartsharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayonining qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun, debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "Aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlantiruvchi mezon hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o'qituvchiga bog'liqligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilsak, o'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda tanlash ta'lim sifatini yanada oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq – Toshkent: O'qituvchi, 2024.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi / M. Ochilov. – Toshkent: O'qituvchi, 2023.
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar / N. Muslimov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2025. T-1-son
4. Ta'limda interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi / R. Ishmuhamedov– Toshkent: Fan, 2023.